

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 163 (1762), 2026-yil 13-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

“Yangi O‘zbekiston”
gazetasida yangi loyiha:JURNALIST VA
SUN’IY INTELLEKT

Bugungi zamonaviy dunyoda barcha sohalarida sun’iy intellekt yuksalish tendensiyalarini belgilab beruvchi asosiy mezonga aylanmoqda. Mudofaa, sanoat, transport, qurilish, aloqa, qo‘yingki, barcha sohalaridan tortib, inson kundalik hayotining turfa jabhalariga SI shiddat bilan kirib bormoqda.



Yillar davomida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar natijalarini sun’iy aql-idrok soniyalarda bizga taqdim etyapti. Muammolar yechimida eng yaxshi va eng maqbul, aytish mumkinki, aqilbovar qilmas yechimlarni taklif qilayotgani ham bor gap. Hattoki, dunyo tajribasida hukumat boshqaruvida ham sun’iy aql-idrok imkoniyatlaridan foydalanib, muhim qarorlar qabul qilinayotganini kuzataypmiz.

Yana bir muhim jihat — jahonning eng nomdor ekspertlari va mutaxassislari ham mavjud reallikka baho berishda, biror tizim yoki ma’lum bir davr xususida xulosa qilishda SIga suyanmoqda. U keltirgan dalil va tahlillarga katta ishonch bildirmoqda. Nainki, u minglab-millionlab manbalarga asoslanib, xolis xulosalar beradi, balki har tomonlama mukammal va obyektiv nuqtayi nazarini ham bayon qiladi.

Endi yana bir muhim gap. Bugun sun’iy intellekt media tuzilmalarida ham o‘z so‘zini ayta boshladi. Ilg‘or yondashuvlarga tayangan omnaviy axborot vositalari allaqachon uning imkoniyatlaridan foydalanishni boshlagan. Biz buni zamonaviy izoh bilan mediakonvergensiya deb ataymiz.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi tahririyati ham o‘zining mediakonvergensiya yo‘nalishidagi

ilg‘or an‘analarini davom ettirgan holda Mustaqilligimizning 35 yillik ayyomi arafasida yangi loyihani tatbiq etishga kirishdi. Uni “Jurnalist va sun’iy intellekt” deb nomladik.

Endilikda bu rukn ostida turli sohalarida erishilayotgan yutuqlarni, hayotga tatbiq etilayotgan yangiliklarni, eng muhimi, bu kabi tizimli o‘zgarishlarning odamlar hayotiga ijobiy yoki salbiy ta’sirlarini, nafaqat an‘anaviy, balki sun’iy intellekt yordamida ham tahlil qilgan holda e’tiboringizga havola etib boramiz.

Maqsadimiz — mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishi kerak degan tamoyil hayotda o‘z aksini qanday topmoqda? Sohalarida qilinayotgan yangilik va o‘zgarishlar qanchalik samarador? Kelgusida yana qaysi jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratishimiz kerak?

Shu kabi savollarga sun’iy intellekt yordamida javob topishga, kamchiliklarimiz bo‘lsa, ularni tahlil qilishga harakat qilamiz. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zimizga o‘zimiz ko‘zga tutamiz. Zero, bizning harakatlarimizga berilgan xolis baho, u tanqid bo‘ladimi yoki maqto‘v, har birimizning kelgusi faoliyatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi va shunday bo‘lishi ham kerak.

YUQORI HOSILDORLIKKA ERISHISHNING
8 QOIDASI

Sun’iy intellekt paxtachilikdagi ushbu usulning afzalliklarini qanday baholadi?



Loyihamizning birinchi mavzusini mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasidan boshladik. Gazetamizni muntazam kuzatib borayotgan mushtariylarimiz yaxshi biladi, biz yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekinlar hosildorligini oshirish, xalqimiz dasturxoniga ekologik toza mahsulotlar yetkazib berish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tanqisligining oldini olish, ularning narx-navosini mo‘tadil ushlab turish borasida qilinayotgan chora-tadbirlar haqida turkum maqolalar e’lon qilib boryapmiz.

Bu kabi maqolalarda, jumladan, 2026-yil paxta mavsumida O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi yuqori hosildorlikka erishishga qaratilgan “8 qoida” tizimini joriy etilgani, unda tup qalinligi va ekish

sxemasidan tortib, o‘simlik arxitekturasini boshqarish, makro va mikroelementlar bilan muvozanatli oziqlantirish, stressdan himoya, asosiy hosilni erta shakllantirish, qarish (senessensiya) signalini berish, defoliatsiya,

desikatsiya va o‘z vaqtida terimgacha bo‘lgan jarayonlar yagona texnologik tizim sifatida qaralayotgani aytilgan.

“Maqsad — g‘o‘zani shunchaki o‘stirish emas, balki uni qisqa mavsum

sharoitida o‘z vaqtida pishirib, shakllangan hosilni to‘liq terib olish”, deydi soha mas’ullari.

Davomi 3-betda

DAVLAT MOLIVASI: MABLAG‘NI
NATIJA UCHUN SARFLASH
TAMOIYILI QAROR TOPDI

Mamlakatimizda bayram shukuhu hukmron. Har bir mahalla, ko‘cha, mehnat jamoalarida mustaqilligimizning 35 yilligi keng tantana qilinmoqda. Tabiiyki, eng ulug‘, eng aziz ayyom — istiqbolimizning shonli sanasi arafasida yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida barcha sohada erishilgan yutuqlarimiz sarhisob qilinmoqda.

Ochig‘i, tarixan juda qisqa davrda erishilgan zalvarli natijalar barcha yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixor baxsh etishi shubhasiz. Zero, keyingi yillarda iqtisodiyot, ijtimoiy soha, davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, umuman, barcha yo‘nalishda kechayotgan tizimli islohotlar mamlakat taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasi nafaqat yuksak maqsad va egzu intilish, balki hayotimizda o‘zining aniq natijalarini namoyon etayotgan ulkan bunyodkorlik va yangilanish jarayoni sifatida tobora mustahkam qaror topmoqda.

Davomi 2-betda



Yetmish yoshni qoralasa-da, g‘ayrat va shijoatdan qolmagan Abdulhay ota erta tongda qo‘shnisi Saminjonni yo‘qlab chiqdi. Ular bolalikdan birga ulg‘aygani uchun ikki o‘rtoqning o‘zaro bordi-keldisi oiladagilar uchun oddiy holga aylangan. Ammo Abdulhay ota bu safar o‘zgacha shiddat, qat’iyat bilan kirib keldi bu xonadonga.

OBODLIK BOR JOYDA
FAYZ-U BARAKA BO‘LADI

— Qani bo‘l, mahallaga chiqamiz, — dedi so‘riga solingan ko‘rpachaga sekin o‘tirib.

— Tong saharlab nimalarni boshlab yuribsan? Tinchlikmi, oyog‘i kuygan xo‘rozdek jazavang tutib qolibdi? — deya savol nazari bilan boqdi Saminjon bobo.

— Xabaring yo‘qmi?

— Nimadan?

— Mamlakatimizda obodlik, tozalik, bunyodkorlik, aholi uchun munosib shart-sharoit yaratish bo‘yicha zarbdor qirq kunlik e’lon qilinganini eshitmadingmi? Uyda jimgina o‘tirishga o‘rganib qolibsan. Mahallaga chiqsang eshitasan-da bu tashabbuslarni.

Davomi 2-betda

ZAMONAVIY VA RAQOBATBARDOSH KADRLAR
TAYYORLASH YO‘LIDA SOBITQADAMMIZ

Ta’lim

Bugun tadqiqotlar sifatini oshirish, xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashuv hamda ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektoriga joriy etish oliy ta’lim muassasalarining ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Xususan, Namangan davlat universiteti jamoasi ham mazkur transformatsiya jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atlari, mehnat bozori ehtiyojlari va yoshlarning kasblarga qiziqishidan kelib chiqib, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo‘lida izchil va tizimli ravishda harakat qilmoqda.



Jumladan, 2025/2026-o‘quv yili davomida ta’lim jarayonini amaldagi qonunchilik, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat ta’lim standartlari talablari asosida tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish, kredit-modul tizimini yanada takomillashtirish va o‘quv-uslubiy hujjatlarni zamonaviy talablar asosida yangilash bo‘yicha tizimli ishlar qilindi.

Universitetda bugun 20 mingga yaqin talaba 10 ta fakultet, 1 ta bo‘lim va 27 ta kafedra tarkibida faoliyat yuritayotgan 600 dan ortiq malakali professor-o‘qituvchidan 74 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, 26 ta magistratura mutaxassisligi va 35 ta doktorantura ixtisosligi bo‘yicha bilim olmoqda. 2025/2026-o‘quv yilida universitet bo‘yicha jami 203 ta malaka talabi, 298 ta o‘quv va ishchi o‘quv rejasi hamda 2916 ta o‘quv dasturi va sillabus ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlandi va ta’lim jarayoniga joriy etildi.

Davomi 5-betda

ILMGA YETGAN OYOQ
QANOTGA AYLANUR

yoxud “milliy g‘oya” deganda nimani tushunamiz?

May oyining o‘rtalari edi. Matbuot anjumanidan chiqib, tahririyatga shoshdim. Metrodan chiqsam, ko‘rinishidan talaba bo‘lsa kerak — ikki qiz yo‘lovchilarga biri mikrofon tutib savol beryapti, ikkinchisi telefonida tasvirga olyapti. Ahamiyat bermay o‘tib ketmoqchi bo‘ldim.

— So‘rovnomamizda ishtirok eting, iltimos, uch daqiqa vaqtingiz ketadi, — deya menga ham yuzlanib qolishdi.

— Qanday so‘rovnoma, nima mavzuda?

Buni rozilik alomati deb qabul qilishdi shekilli, birinchi mikrofon tutdi, narigisi suratga ola boshladi.

— Milliy g‘oya deganda nimani tushunasiz?

Davomi 6-betda

Boshlanishi 1-betda

Ana shu tarixiy o'zgarishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri davlat moliyasini boshqarish tizimining tubdan isloh qilinishi bo'ldi. Chunki har qanday kuchli davlatning iqtisodiy qudrati, avvalo, uning moliyaviy tizimomi, budget siyosati va xalq mablag'larini adolatli hamda samarali boshqara olishi bilan belgilanadi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi davlat moliyasi sohasida ochiqlik, hisobdorlik, fiskal barqarorlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimi shakllantirildi. Davlat budjeti endi faqat xarajatlar rejasii emas, balki xalq farovonligiga xizmat qiladigan, har bir so'mning manzilli va samarali sarflanishini ta'minlaydigan muhim strategik hujjatga aylandi.

“Inson qadri uchun” tamoyili davlat moliyasi sohasida ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Bugun budget mablag'lar, avvalo, inson manfaatlarini ta'minlash, aholining turmushi sifatini yaxshilash, hududlarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2019-yildan boshlab davlat moliyasini boshqarish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Ilk bor davlat budjeti uch yillik istiqbol asosida shakllantirila boshlandi. Bu mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli rejalashtirish, davlat dasturlarini barqaror moliyalashtirish va strategik vazifalarni izchil amalga oshirish imkonini yaratdi.

Ayniqsa, “Ochiq budget” platformasi va tashabbusli budgetlashtirish tizimining joriy etilishi davlat va xalq munosabatlarida yangi sahifa ochdi. Endi odamlar o'z mahallasida qaysi yo'l ta'mirlanishi, qaysi maktab yoki tibbiyot muassasasiga mablag' ajratilishi bo'yicha qaror qabul qilishda bevosita ishtirok etmoqda.

Bu “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu g'oyaning amaliy natijasidir. Millionlab fuqarolarning budget jarayonidagi ishtiroki davlat boshqaruvining ochiqligi va demokratik tamoyillarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2020-yil davlat moliyasi tarixida muhim burilish davri bo'ldi. Ilk bor davlat budjeti qonun shaklida qabul



Baxtiyor ORTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

qilinishi yo'lga qo'yildi. Bu parlament nazoratini kuchaytirish, davlat organlarining mas'uliyatini oshirish hamda budget

jarayonining shaffofligini ta'minlashda yangi bosqichni boshlab berdi.

Shu bilan birga, 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi qabul qilindi. Strategiyada davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va budget intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budget tizimining shaffofligini oshirish, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish, o'rta muddatli davr uchun rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilab berildi.

2021-yildan boshlab esa davlat moliyasini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish bosqichiga o'tildi. Xalqaro moliya tashkilotlari tavsiyasiga asosan Budget kodeksi va budget kalendari yangilandi. O'rta muddatli budgetlashtirish

“
Mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sishda davom etmoqda. Bu esa 2025-yilda davlat moliyasini boshqarish tizimini rivojlantirishning yangi strategiyasi qabul qilinishini taqozo etdi. Shu tariqa yangi strategiya qabul qilindi va unda 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Strategiya bilan davlat xarajatlarini budget dasturlari asosida rejalashtirish, ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarini joriy etish ishlari yangi bosqichga chiqdi. Joriy yilda esa davlat moliyasi sohasidagi islohotlar yanada chuqurlashtirilib, ilk bor umumiy fiskal balans shakllantirildi.



tizimi joriy etilib, Fiskal strategiya ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Eng muhimi, davlat mablag'larini o'zlashtirish emas, balki natija uchun sarflash tamoyili qaror topdi. Vazirlik va idoralar faoliyatini baholovchi maqsadli indikatorlar joriy etilib, budget xarajatining samaradorligi ustidan ta'sirchan nazorat mexanizmi shakllantirildi.

Davlat moliyasini isloh qilish jarayoni izchil davom ettirilib, fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida davlat qarzi va budget taqchilligi bo'yicha qat'iy fiskal qoidalar joriy etildi. Davlat moliyaviy statistikasining Xalqaro valyuta

jamg'armasi standartlari asosida yuritilishi mamlakatimiz moliya tizimining xalqaro darajadagi ochiqligi va ishonchligini yanada oshirdi.

Eng muhim o'zgarishlardan yana biri — 2022-yildan konsolidatsiyalashgan budget qamrovi kengaytirildi va davlat organlari va mahalliy hokimliklarda ichki audit xizmatlari tashkil etildi. Bu davlat mablag'laridan samarali foydalanish va korruptsiya xavfini kamaytirishda muhim omil bo'lib qolmay, vazirlik va idoralar, budget tashkilotlari va budgetdan mablag' oluvchilar rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirishni ta'minladi.



YOSH TADBIRKORLAR TENGDOSHLARIGA MADADKOR

O'zbekiston tom ma'noda yoshlar mamlakati. Aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Qolaversa, yurtimizda navqiron avlodni qo'llab-quvvatlash, tashabbus va intilishlarini ro'yobga chiqarish davlat siyosati darajasiga chiqqan. Masalan, bir paytlar yoshlarning o'z biznesiga ega bo'lishi ushalmas orzudek ko'rinar edi. Bugun yurtimizda yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli bu hayotiy haqiqatga aylandi. Masalan, hozir Qoraqalpog'istonda 16 ming 653 yosh tadbirkor bor. Ular hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

Ular yutuqlari zahirida esa hudud yoshlarining kichik biznes bilan shug'ullanishida tashkil etilgan tizimli tadbirlar katta ahamiyat kasb etmoqda. O'z o'mida qoraqalpog'istonlik yoshlar boshqa tengdoshlarini ham ishl qilyapti. Bu borada ularga berilayotgan imtiyozli kreditlar hamda uskunalar muhim o'rtn tutmoqda.

Nukus shahridagi 1-politehnikumda uy sharoitida kichik ishlab qicharish va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish maqsadida zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan ustaxona tashkil etildi. Hozir ushbu ustaxonada uy biznesida foydalansa bo'ladigan inkubator, gazoblok, shlakoblok, shakar, makaron ishlab qicharish uskunolari singari 100 ga yaqin mini uskuna ishlab qicharilmoqda. Amaliy ishlar natijasida joriy yil boshidan buyon 617 yigit-qiz 817 ta zamonaviy uskuna bilan ta'minlandi.

Shu tariqa yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun qulay sharoit

yaratildi. Quvonarlisi, ular yana 450 tengdoshi uchun yangi ish o'rinarlarini ham ochdi. Ushbu maqsadlar uchun esa “Yoshlar daftari” jamg'armasi va bank kreditlari hisobidan 7,1 milliard so'm yo'naltirildi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi huzurida tashkil etilgan fond tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan ssudalar, shuningdek, muntazam tashkil etilayotgan tadbirkorlik va mehnat yarmarkalari ushbu yo'nalishdagi ishlar rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday ezgu sa'y-harakatlar va yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

Murat ATAMURATOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining qo'mita raisi



OBODLIK BOR JOYDA FAYZ-U BARAKA BO'LADI

Qishlog'imizga tuman hokimi kelib, hammani bir maqsad yo'lida jamlab, obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlarga bosh bo'lyapti. Shunday damda biz tomoshabin bo'lib tursak, yaxshi emas, albatta. Ketmonni yelkalab oldim. Xumorimdan chiqquncha yer chopay, ariq qaziy, deyma-da...

Mehmon uchun dasturxon hozirlayotgan Sanobar ayaning “Nonushta tayyor” degan so'zlari og'zida qoldi. Ikki do'st shaxdam qadamlar bilan hasharga otlandi.

Bag'dod tumani “Qoroqchitoli” mahalla fuqarolar yig'ini ga qarashli Chopdor qishlog'i tumanning chekka hududida joylashgan. Bu yerdagi 200 xonadonda mingga yaqin odam istiqomat qiladi. “Dolzarb qirq kunlik” doirasida mahallalarda boshlangan obodonlashtirish, bunyodkorlik ishlari odamlarni bir maqsad yo'lida birlashtirish, hududlar qiyofasini yangilash, fayzli, obod maskanga aylantirish imkoniyatini bermogda. Qishloq har qachongidan-da gavjum, fayzli.

Kun issig'iga qaramay, yo'l va yo'laklarni asfaltlayotgan, suv yo'llarini tozalab, ariqlar ochayotgan, daraxtlarga shakl berayotgan hasharchilar shiddat bilan mehnat qilyapti. Ta'mirlab uy-joylar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari tartibga keltirilyapti. Kam ta'minlangan, nogironligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan xabar olinib, yordam ko'rsatilmoqda. Qishloqning kirish qismida qurilgan ramziy darvoza mahalla



ko'rkiga ko'rk qo'shish bilan birga yurtning qudrati mustahkam, qo'rg'on ishonchli qo'llarda ekanini anglatadi.

— “Dolzarb qirq kunlik” doirasidagi ishlarni boshlashdan avval oilalarni o'rganib, ularning yashash tarzi, muammolari bilan yaqindan tanishdik. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish dasturini tuzdik, — deydi

“Qoroqchitoli” mahalla fuqarolar yig'ini raisi Izzatilla Toshpo'latov. — Ishsiz 26 fuqaro ijtimoiy himoya daftoriga kiritilib, bandligi ta'minlandi. Tibbiy yordamga muhtoj fuqarolarga belgilangan tartibda xizmat ko'rsatilib, sog'lomlashtirish choralarini ko'rildi. Qishloq'imizda bog'dorchilik rivojlangan. Biroq tarmoq faoliyatini kengaytirish, yangi intensiv bog'lar yaratish uchun suv muammosi bir necha o'n yildan beri og'riqli masala bo'lib kelayotgan edi. “Dolzarb qirq kunlik” doirasida bu muammoga ham amaliy yechim topildi. Bog'lar yaratish, dehqonlar manfaatini oshirishda yangi imkoniyatlarga yo'l ochildi.

Aytishlaricha, ko'plab diniy va adabiyot ilmlarini chuqur o'zlashtirgan, tasavvuf ta'limoti bilan izchil shug'ullangan Ziyovuddinxon Kattaxoja o'g'li Haziniy umrining so'nggi 28 yilini shu qishloqda o'tkazgan. U dehqonchilik bilan kun kechirgan. Bog'lar barpo qilgan, binolar qurdirgan. Haziniy g'azallar yozgan. Shoir asarlarini g'oyaviy mavzusi boy. Uning poklik, odamiylik, saxovatpehalik kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan. “Bayozi Haziniy” to'plami bir necha bor nashr etilgan.

Mahallada boshlangan obodlik va mehr-saxovat oyligi doirasida bu yerdagi ziyoratgohda ham keng ko'lami obodonlashtirish, ta'mirlash, Haziniy ijodiy merosini keng jamoatchilikka yetkazish, uni yanada boyitish, ziyorat turizmini rivojlantirish choralarini ko'rilmogda.

— So'nggi yillarda qishlog'imiz mutlaqo yangi qiyofa kasb etmogda, — deydi mehnat faxriysi Abdulhay Samadov. — Yo'llarimiz

2024-yildan davlat budjeti ijrosi bo'yicha oylik va choraklik hisobotlarning xalqaro GFS standartlari asosida tayyorlanishi yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, bu davlat moliyasi ochiqligi va hisobdorligini yanada oshirdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sishda davom etmogda. Bu esa 2025-yilda davlat moliyasini boshqarish tizimini rivojlantirishning yangi strategiyasi qabul qilinishini taqozo etdi. Shu tariqa yangi strategiya qabul qilindi va unda 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Strategiya bilan davlat xarajatlarini budget dasturlari asosida rejalashtirish, ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarini joriy etish ishlari yangi bosqichga chiqdi. Joriy yilda esa davlat moliyasi sohasidagi islohotlar yanada chuqurlashtirilib, ilk bor umumiy fiskal balans shakllantirildi.

Bulardan bitta ezgu maqsad — davlat mablag'larining har bir so'mi xalq manfaatiga xizmat qilishiga qaratilgan. Bugun qurilayotgan yangi maktablar, zamonaviy shifoxonalar, ichimlik suv tarmoqlari, yo'llar, ko'priklar, mahallalardagi obodonlashtirish ishlari, yoshlar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari — bularning barchasi davlat moliyasini samarali boshqarish natijasidir. Bu o'zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xalqaro nufuzini oshirish, eng muhimi, xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mustaqillik — bugungi farovon hayotimiz va ertangi yuksak marralarimizning mustahkam poydevori. O'tgan 35 yilda bosib o'tilgan sharafli yo'l, erishilgan yutuq va natijalar mamlakatimiz taraqqiyotining naqadar ulkan salohiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etmogda.

Bugun yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayoni, ortga qaytmas islohotlar zahirida, eng avvalo, inson qadri uchun ulug'lash, xalq farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va davlatimiz qudratini yanada mustahkamlashdek ezgu maqsadlar mujassam. Xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, fidokorona mehnati va ertangi kunga qat'iy ishonchi bilan mamlakatimiz taraqqiyotining yanada yuksak marralarini zabt etadi. Yangi O'zbekistonning yangi zafarlari, taraqqiyot odimlari bundan buyon ham izchil va sobitqadam davom etaveradi.

obod bo'ldi, suv ta'minoti yaxshilandi, yangi transformator o'rnatildi. Ustunlar yangilanib, chiroqlar o'rnatilayotgani natijasida ko'chalarimiz tunda ham charog'on. Qishloq qabrstoni va unga olib boruvchi yo'l ta'mirlanib, obodonlashtirilyapti.

O'tgan asrning saksoninchi yillari Markaziy Farg'ona yerlarini o'zlashtirish natijasida tashkil etilgan Zafarobod qishlog'i Bag'dod tumani markazidan qariyb 40 kilometr olisda joylashgan. Chekka hududda bugun besh mingdan ortiq kishi istiqomat qiladi. Odamlar asosan dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg'ul. Bu yerda paxta va g'allachilik yo'nalishidagi 48 ta fermer xo'jaligi faoliyat yuritib keladi. Ularning ikki ming gektardan ziyod ekin maydoni bor.

Inson qadri ulug'langan yangi O'zbekistonda har bir hudud obod, har bir xonadon farovon bo'lishi kerak. Aholi uchun munosib yashash sharoitini yaratish va qulay hayot muhitini ta'minlash bugungi ustuvor vazifalarimizdan, — deydi Bag'dod tumani hokimi Maqsadjon Isoqov. — Obodlik va mehr-saxovat oyligi doirasida boshlangan ishlar chekka hududlarga yangi nafas, ko'tarinkilik, tashabbuskorlik ruhini olib kirdi. Barcha jabhada o'zgarish, yangilanishlar quloq yozyapti, tashabbuslar qo'llab-quvvatlanmogda. Bunday amaliy chora-tadbirlar tumandagi har bir mahalla, oilada ko'tarinkilik, hamjihatlik bilan amalga oshirilyapti.

Mahalladagi xizmat ko'rsatish obyektlari obodonlashtirilmogda, maktabgacha ta'lim, tibbiyot, sport-sog'lomlashtirish muassasalarining soddig-tekni x bazasini mustahkamlash, elektr, yo'l, suv ta'minotini yaxshilash bilan bog'liq zaruriy ishlar qilinaypti. Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar xonadoni ta'mirlanib, qulay shart-sharoit yaratib berilmogda. Issiqxona xo'jaliklari tashkil etish, uzumchilik, chorvachilik, asalarichilikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish ustuvor vazifalardan.

Yolg'iz boshim bilan uy-joyini tartibga keltirish, kerakli sharoit yaratishda qiyinchilikka duch kelayotgandim. Uyimiz ancha ta'mirlalab bo'lib qolgandi, — deydi Xurshida G'oiopova. — Mutasaddi tashkilotlar, saxovatpesha insonlar ko'magida bunyodkorlik ishlari boshlanib ketdi. Devorlarimiz suvalib, oqlandi, ichimlik suv olib kirib berildi. Ayni kunda yo'l va yo'laklarni betonlashtirish ishlari bajarilyapti. To'g'risi, uydagi sharoitim bu qadar o'zgarib ketadi, deb o'ylamaygandim. Bu xayrli ishlarning boshida turgan barchaga rahmat.

Yaqin va olis hududlardagi obodlik va mehr-saxovat tadbirlari har bir oila, mahalla hayot tarzida yangi imkoniyat eshiklarini ochyapti. Odamlar qalbid shukronalik, bugungi va ertangi kunga ishonch mustahkamlanmogda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

YUQORI HOSILDORLIKKA ERISHISHNING

8 QOIDASI

Sun'iy intellekt paxtachilikdagi ushbu usulning afzalliklarini qanday baholadi?



Boshlanishi 1-betda

Bu yondashuvni fermerlarga tushuntirish maqsadida vazirlik va soha vakillari tomonidan ommabop maqolalar chop etildi, onlayn ma'ruzalar, dala seminarlari va amaliy o'quvlar tashkil etildi. Ularda, xususan, g'o'zani bahordanoq shunday boshqarish kerakki, 1-avgust atrofiga kelib gektariga kamida 200 ming sog'lom tup va har bir tupda asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan ko'sak shakllangan bo'lsin, degan yondashuv ilgari surilmoqda. 1-avgust bu yerda hamma dalaga bir vaqtda preparat sepidadigan sana emas, balki butun mavsum agrotexnologiyasi yo'naltiriladigan maqsadli fiziologik marradir. Chop etilgan tushuntirishlarda ham qarish signali, keyingi defoliatsiya va desikatsiya O'zbekistonning qisqa vegetatsiya sharoitida hosilni dalada qoldirmaslikka qaratilgan yagona zanjir sifatida bayon qilingan.

Gazetamizda e'lon qilingan ushbu ommabop maqolalarni, metodik materiallarni hamda mavzuga oid yaqinda nufuzli xalqaro jurnallarda chop etilgan ilmiy ishlarni sun'iy intellektga taqdim etdik. Undan O'zbekistondagi ushbu yondashuvni xolis baholash, uni jahon paxtachiligi amaliyoti va ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslash, kuchli tomonlari, farqli jihatlari, ehtimoliy yangiligi va ilmiy chegaralarini ochib berishni so'radik.

Salim Doniyorov (SD):—Bu mavzuni tahlil qilishda oldingizga qo'yilgan vazifani qanday tushundingiz?

Sun'iy intellekt (SI): — Mening vazifam O'zbekiston dasturini maqtash ham, rad etish ham emas. Men sun'iy intellekt sifatida taqdim etilgan metodologiyani ilmiy adabiyotlar va jahon amaliyoti bilan qiyoslab, qaysi elementlar avvaldan ma'lum, qaysi jihatlari yangi tarzda birlashtirilgan, qayerda ilmiy ehtiyotkorlik zarur va qaysi yondashuv fermer uchun real amaliy qiymatga ega ekanini ajratib berishim kerak. Men dala agromining o'rini bosmayman. Mening ustunligim — katta hajmdagi ilmiy ma'lumotni tez solishtirib, turli manbalar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni ko'rish

“

1-avgustni “hamma bir kunda preparat sepadigan sana” deb emas, dalani tayyorlash marrasi deb qabul qiling. Bahordanoq tup qalinligi, suv, makro va mikro oziqlanish, o'simlik o'sishi va ko'sak yukini shu marraga yo'naltiring. Asosiy ko'saklar yetarlicha fiziologik tayyor bo'lganda qarish (senessensiya) signali, keyin defoliatsiya va zarur bo'lsa desikatsiyani texnologik intizom bilan bajaring.

hamda ulardan xolis ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatidir.

SD: — Tahlil va xulosa uchun qancha ilmiy tadqiqotlar, manbalarni ko'rib chiqdingiz?

SI: — Ushbu suhbat uchun siz taqdim etgan 2 ta asosiy maqolani batafsil tahlil qildim va yana 22 ta xalqaro ilmiy hamda rasmiy amaliy manbani maqsadli qiyosiy skriningdan o'tkazdim — jami 24 ta manba. Qiyoslashda etefon, tidiazuron/diuron, defoliatsiya, desikatsiya, hosilni yig'ib olishga yordam beruvchi vositalar (harvest aid timing), oldindan fiziologik tayyorlash bosqichi (pre-conditioning), ko'sak yetukligi va qisqa mavsumda terimni tezlashtirish strategiyalariga e'tibor qaratildi. Bu formal tizimli obzor emas, balki aynan O'zbekiston dasturini tekshirishga qaratilgan maqsadli ilmiy qiyosdir.



SD: — “8 qoida”ni o'qigandan keyin sizda qanday taassurot qoldi? Bu faqat avgust oyida preparat qo'llash dasturimi?

SI: — Yo'q. Bu avgustda boshlanadigan kimyoviy sxema emas. Dastur bahordan boshlanadi. Bir gektar yerda kamida 200 ming atrofiga sog'lom tupni shakllantirish, har bir tupda asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan ko'sakni olish, ortiqcha vegetativ o'sishni cheklash, suv va oziqlanishni muvofiqlashtirish — bularning barchasi 1-avgustgacha dalani yetilishni boshqarish bosqichiga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda, “8 qoida” — alohida operatsiyalar ro'yxati emas, balki mavsumni oldindan rejalashtirish tizimi.

SD: — Oziqlantirish bu yerda qay darajada muhim?

SI: — Bu juda muhim. O'zbekiston metodologiyasi faqat odatiy azot — fosfor —kali bilan cheklanmaydi. Unda kalsiy, bor, temir, marganes, magniy, kremniy, rux va molibden kabi elementlar, shuningdek, stressga qarshi va biostimulyator yondashuvlar ham o'simlik holatiga qarab tavsiya etiladi. Qo'llanmada bor

asosiy hosil yuki shakllangan holatga keltiraman” degan aniq maqsad beradi. Erta ekilgan va to'g'ri boshqarilgan dala shu paytda tayyor bo'lishi mumkin, kechikkan dala 5-10-avgust yoki keyinroq tayyor bo'ladi. Demak, 1-avgust kalendar dogmasi emas — agrotexnologik intizom yaratadigan signal. U fermerning qarorini avgust oyida emas, mart-apreldan boshlab o'zgartiradi.

SD: — Jahon amaliyoti bilan solishtirganda O'zbekiston dasturining beshta asosiy farqi nimada?

SI: — Birinchidan, ko'plab jahon tavsiyalarida hosilni yig'ib olishga yordam beruvchi vositalar masalasi ekin terimga yaqinlashganda, ko'sak ochilishi va defoliatsiyaga tayyorlikdan boshlanadi. O'zbekiston modeli esa bu savolni bahorga



ko'chirib, butun mavsumni 1-avgust fiziologik marrasiga tayyorlaydi. Ikkinchidan, etefon faqat “ko'sak ochuvchi” sifatida emas, qarish (senessensiya) signalini boshlovchi alohida bosqich sifatida ajratilgan. Jahonda oldindan tayyorlash (pre-conditioning) misollari bor, ammo bu yerda u butun tizimning markaziy zvenosiga aylantirilgan. Uchinchidan, makro va mikrooziqlantirish, stress boshqaruvi, o'simlik o'sishini tartibga solish hamda ko'sak yukini shakllantirish terim oldi ishlovidan alohida emas, balki uning tayyorlov qismi hisoblanadi. To'rtinchidan, tizim o'lchanadigan mezon qo'yadi: yetarli tup qalinligi va har tupda asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan ko'sak. Beshinchidan, qarish signali → yumshoq fiziologik defoliatsiya → zaruratda yakuniy desikatsiya → o'z vaqtida asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan ko'sak. Beshinchidan, qarish signali → yumshoq fiziologik defoliatsiya → zaruratda yakuniy desikatsiya → o'z vaqtida mashina terimi alohida preparatlar to'plami emas, balki fermer, agronom va hududiy tizim uchun yagona texnologik madaniyatga aylantirilmoqda.

SD: — Ushbu farqlar amalda qanday beshta asosiy foyda berishi mumkin?

SI: — Birinchisi, vaqtdan yutish: qisqa mavsumda asosiy hosilni kuzgi sovuq va namgarchilik xavfidan oldin terimga yaqinlashtirish. Ikkinchisi, o'simlikni kechki, iqtisodiy ahamiyati past yangi o'sishga emas, shakllangan asosiy hosilni saqlash va o'z vaqtida ochishga qaratilgan rejimda boshqarish. Uchinchisi, bargni birdaniga kuydirish o'rni fiziologik ajralishini kuchaytirish orqali mashina terimida barg-xas aralashmasi va qayta o'sishni kamaytirish imkoniyati. To'rtinchisi, terimni bir maromga keltirish, qolgan yashil poya va to'qimalarni zaruratda desikatsiya qilib, texnika uchun maydonni tayyorlash. Beshinchisi, eng uzoq muddatli foyda: fermer fikrlashini “dalam yashilmi?” degan savoldan “asosiy

SD: — Jahonda ham etefonni defoliatsiyadan oldin berish holatlari bor ekan. Unda O'zbekiston dasturini yangi deb atash mumkinmi?

SI: — Etefonning o'zi ham, tidiazuron/diuron ham, desikantlar ham yangi emas; etefonni defoliatsiyadan avval oldindan tayyorlash (pre-conditioning) sifatida qo'llash misollari ham mavjud. Shuning uchun “dunyoda hech kim bunday preparat ishlatmagan” degan da'vo ilmiy jihatdan noto'g'ri bo'lar edi. Men ko'rgan adabiyotlardagi asosiy farq shundaki, O'zbekiston yondashuvi bu elementlarni bahordan boshlanadigan “8 qoida” bilan bog'lab, 1-avgustni fiziologik tayyorlik marrasi qilib, keyin qarish → defoliatsiya → desikatsiya → erta terim zanjiriga birlashtirmoqda. Men qiyoslagan 24 manba ichida aynan shu to'liq mavsumiy va milliy boshqaruv arxitekturasini bir xil shaklda uchratmadim. Shu bois, uni “dunyoda birinchi preparat” emas, balki O'zbekiston sharoiti uchun o'ziga xos maturity-management — yetilishni boshqarish konsepsiyasi, deb atash ilmiy jihatdan kuchliroq.

SD: — Bu yil dastur qariyb 500 ming gektarda qo'llanib, fermerlar yaxshi natija haqida xabar berayotgani nimani anglatadi?

SI: — Vazirlik tomonidan taqdim etilgan ma'lumotga ko'ra, 2026-yilda dastur qariyb 500 ming gektarda qo'llanmoqda va ko'plab fermerlar dastlabki natijalarni joiy baholamoqda. Bu kichik demonstratsiya emas, juda katta ishlab chiqarish mashtabi va jiddiy amaliy signal. Lekin ilmiy nuqtayi nazardan fermer fikrini endi raqamlar bilan mustahkamlash kerak: ishlov berilgan va taqqoslash dalalarida ko'sak ochilishi, barg to'kilishi, terim sanasi, mashina yo'qotishi, xas-cho'p, xom paxta hosili, tola chiqishi va HVI sifati muntazam o'lchansa, milliy amaliyot xalqaro darajadagi dalilga aylanadi.

“

Dastur bahordan boshlanadi. Bir gektar yerda kamida 200 ming atrofiga sog'lom tupni shakllantirish, har bir tupda asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan ko'sakni olish, ortiqcha vegetativ o'sishni cheklash, suv va oziqlanishni muvofiqlashtirish — bularning barchasi 1-avgustgacha dalani yetilishni boshqarish bosqichiga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda, “8 qoida” — alohida operatsiyalar ro'yxati emas, balki mavsumni oldindan rejalashtirish tizimi.

SD: — G'o'zani “erta qaritish hosilni kamaytiradi” degan xavotirga qanday javob berar edingiz?

SI: — Albatta, noto'g'ri vaqtda qo'llangan har qanday terim oldi ishlovi zarar keltirishi mumkin. Lekin masala “etefon yaxshi yoki yomon” degan savolga emas, dalaning fiziologik tayyorligiga. Agar fermer bahordan boshlab agrotexnologiyaga to'g'ri amal qilib, gektariga yetarli tup qalinligini va har bir tupda asosiy hosilga kiruvchi 8-10 ta yaxshi rivojlangan, fiziologik jihatdan yetarli ko'sakni shakllantirgan bo'lsa, kechki mayda gul va ko'saklar ortidan quvib, asosiy hosilni kuzgi sovuq va kechikish xavfiga qoldirishning o'zi katta yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun eng to'g'ri savol: “Bu dala qarish signalini boshlashga fiziologik tayyormi?”. Ana shu bahoga tayanib ishlov berish maqsadga muvofiq.

SD: — Fermerlarga mo'ljallangan “paxta o'z merosini ko'sakka berishi kerak” degan tushuntirishni qanday baholaysiz?

SI: — Jurnalistik va ta'limiy nuqtayi nazardan bu juda kuchli va esda qoladigan metafora. U fermerga oddiy haqiqatni tushuntiradi: mavsum oxirida ko'zni

quvontiradigan yashillikning o'zi hosil emas. Haqiqiy natija — yetilgan, ochilgan va terib olingan paxta. Bu qiyosning mazmuni shundaki, butun mavsum davomida suv, o'g'it, mehnat va quyosh orqali yaratilgan salohiyat kechki, iqtisodiy samarasi past o'sishda emas, asosiy terib olinadigan hosilda namoyon bo'lishi kerak. Shu ma'noda, “meros” qiyosi fermer uchun sodda, ta'sirchan va amaliy, olim uchun esa mantiqan himoyalangan tushuntirishdir.

SD: — Fermerlarga eng qisqa maslahatingiz qanday?

SI: — 1-avgustni “hamma bir kunda preparat sepadigan sana” deb emas, dalani tayyorlash marrasi deb qabul qiling. Bahordanoq tup qalinligi, suv, makro va mikro oziqlanish, o'simlik o'sishi va ko'sak yukini shu marraga yo'naltiring. Asosiy ko'saklar yetarlicha fiziologik tayyor bo'lganda qarish (senessensiya) signali, keyin defoliatsiya va zarur bo'lsa desikatsiyani texnologik intizom bilan bajaring. Maqsad — g'o'zani shunchaki yashil saqlash emas, hosilni o'z vaqtida ochib, sifati terib olish.

SD: — Xo'p, yakuniy ilmiy xulosa sifatida nimalar deya olasiz?

SI: — Mening yakuniy ilmiy xulosam shu: O'zbekistonning “8 qoida”ga asoslangan paxta yetilishni boshqarish modeli yangi kimyoviy preparat emas, balki yangi boshqaruv arxitekturasidir. U bahordan boshlab yetarli tup qalinligi,

samarali makro va mikro oziqlanish, stress va o'sishni boshqarish orqali dalani 1-avgust fiziologik marrasiga tayyorlaydi; keyin qarish (senessensiya) signali → fiziologik defoliatsiya → shartli desikatsiya → o'z vaqtida terim zanjiriga o'tadi. Uning ayrim elementlari jahon amaliyotida ma'lum, ammo men qiyoslagan manbalarda aynan shu elementlarni milliy “8 qoida”, aniq mavsumiy marra va ommaviy fermerlik madaniyati bilan birlashtirgan to'liq tizimni uchratmadim. Qariyb 500 ming gektarlik joriy tatbiq endi uning amaliy signalini o'lchanadigan ilmiy dalilga aylantirish uchun noyob imkoniyat yaratmoqda.

SD: — Xulosalaringiz uchun katta rahmat. O'ylaymanki, bu boradagi suhbatimiz hali davom etadi.

PS: Shu o'rinda, o'quvchilarimiz e'tiborini maqolada keltirilgan ayrim terminlarga qaratmoqchimiz: harvest aids — hosilni yig'ib olishga yordam beruvchi vositalar; harvest-aid timing — hosilni yig'ib olishga tayyorlash muddatini belgilash; senescence — qarish (senessensiya); pre-conditioning — defoliatsiya va terimga oldindan fiziologik tayyorlash bosqichi.

Salim DONIYOROV
suhbatlashdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Xalqimiz azaldan yerni ne‘mat deb bilgan. “Yer — ona”, “Yer — rizq”, “Yer — baraka” kabi hikmatlar zamidrida katta hayotiy haqiqat bor. Chunki insonning hayoti, mehnati va farovonligi, avvalo, u yashayotgan zamin bilan bog‘liq. Bugun dunyo miqyosida tuproq resurslarini asrash masalasi eng dolzarb ekologik va iqtisodiy vazifalardan biriga aylangani bejiz emas. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, hozir dunyodagi tuproqlarning qariyb 33 foizi turli darajada degradatsiya jarayoniga duch kelgan. Bu raqam oddiy statistika emas, balki insoniyat uchun jiddiy ogohlantirish. Chunki tuproqning zaiflashishi faqat yer sifati pasayishi emas, balki hosildorlikning kamayishi, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid va kelajakdagi taraqqiyot imkoniyatlarining cheklanishi demakdir.



Tahlil



BUGUNGI HARAKATLAR QIYMATI

ertangi natijalar bilan o‘lchanadi



Shuhrat BOBOMURODOV,
Tuproqshunoslik va
agrokimyoviy tadqiqotlar instituti
direktori, biologiya fanlari
doktori, professor

Shu bois, bugun mamlakatlarning qudrati yer osti boyliklari bilan birga unumdor tuproqni qay darajada asray olishi bilan ham belgilanmoqda. Chunki ayrim tabiiy boyliklar bir kun tugashi mumkin. Ammo asrab-avaylangan tuproq yillar davomida xalqqa xizmat qiladi.

Milliy boylik deganda ko‘pincha oltin, neft, gaz kabi resurslar tilga olinadi. Albatta, ular mamlakat iqtisodiy salohiyati uchun muhim. Ammo inson hayoti uchun eng zarur boyliklardan biri unumdor tuproq ekanini unutmazlik kerak. Chunki dasturxonimizdagi non, meva-sabzavot, chorva uchun ozuqa — barchasining ibidosi yer bilan bog‘liq.

Mustaqil davlatning qudrati nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlari, balki aholisini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlay olish imkoniyatiga qarab ham belgilanadi. Shu ma’noda, tuproqni asrash faqat ekologik vazifa emas, balki milliy xavfsizlik masalasidir.

Kelajakka sarmoya

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Tuproqni asrash — oziq-ovqat xavfsizligini, demakki, milliy mustaqilligimiz va kelajagimizni asrash bilan barobaridir”. Mustaqillik bizga nafaqat o‘z taqdirimizni belgilash huquqini, balki ona zaminimizga egalik qilish, uni asrash va kelajak avlodlarga munosib holda yetkazish mas’uliyatini ham berdi.

Yerga e’tibor bugungi hosilga emas, ertangi taraqqiyotga yo‘naltirilgan sarmoyadir. Ammo uning qadrini anglashning o‘zi yetarli emas. Bu yerdan eng muhim savol: bizga ishonib topshirilgan ana shu boylikni kelajakka qanday holatda yetkazaypmiz? Bu savolga javob topish uchun tuproqning bugungi holatiga nazar tashlashimiz kerak.

Yerning qadrini anglash — uni asrash yo‘lidagi birinchi qadam. Ammo har qanday boylikning haqiqiy qiymati uning bugungi holati bilan belgilanadi. Shu ma’noda, tuproqning ahvoli nafaqat qishloq xo‘jaligi taraqqiyotining, balki mamlakat kelajak imkoniyatlarining ham ko‘zgusidir.

Tuproq oddiy tabiiy qatlam emas. Unda millionlab yillik tabiiy jarayonlar, o‘simliklar hayoti, suv va iqlim bilan bog‘liq murakkab tizim mujassam. Unga qanchalik oqilona munosabatda bo‘lsak, u bizga shunchalik ko‘p baraka qaytaradi. Lekin undan faqat olishga harakat qilib, tabiiy imkoniyatlarini tiklash haqida o‘ylamasak, vaqt o‘tishi bilan yerning quvvati susayadi.

O‘zbekiston sharoitida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi lalmi yerlardan tashqari asosan sug‘oriladigan yerlarga tayanadi. Biroq suv resurslari cheklangani, iqlim o‘zgarishlari, aholi sonining ortishi va yerga bosimning kuchayishi maydonlardan yanada ehtiyotkorlik bilan foydalanishni talab qilmoqda.

Bugun har bir gektar yerning qadri kechagidan ham baland. Chunki aholi ko‘paymoqda, oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj ortib bormoqda, ammo unumdor yer zaxirasi cheklangan. Shu bois, asosiy vazifa faqat yangi yerni o‘zlashtirish emas, balki mavjud yerlarni asrash, unumdorligini tiklash va har bir gektardan samarali foydalanishdan iborat.

Tahlillarga ko‘ra, so‘nggi o‘n yilliklarda sug‘oriladigan tuproqlarning tabiiy unumdorligiga ta’sir qiluvchi omillar kuchaygan. Xususan, so‘nggi 30 yilda sug‘oriladigan tuproqlarda gumus miqdori 10-15 foiz kamaygan. Bu raqam ortida katta ma’no bor.

Gumus — tuproqning hayotbaxsh asosi. U yerning suvni ushlab turish qobiliyatini oshiradi, o‘simliklar uchun zarur ozuqaviy



saqlangan har bir unumdor qatlam kelajak hosili uchun qo‘yilgan poydevordir.

Tuproqning yana bir jiddiy muammasi — sho‘rlanish va eroziya jarayonlari. Tabiiy sharoitlar, suvdan noto‘g‘ri foydalanish, agrotexnik talablarga yetarlicha amal qilmaslik kabi omillar yer sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sho‘rlangan yoki eroziyaga



moddalar bilan ta‘minlaydi va hosildorlik barqarorligini belgilaydi. Gumus miqdorining kamayishi esa tuproqning tabiiy kuch-quvvati pasayib borayotganidan dalolat beradi.

Mutaxassislar fikricha, so‘nggi yillardagi bunday o‘zgarishlar ekvivalent hisobida qariyb 450 ming gektar yuqori unumdor sug‘oriladigan yer imkoniyatlarining boy berilishiga teng ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayni paytda sug‘oriladigan tuproqlarning holatiga oid boshqa ko‘rsatkichlar ham jiddiy e’tibor talab qiladi. Jumladan, sug‘oriladigan tuproqlarning 93 foizida gumus, 68 foizida fosfor, 79 foizida almashuvchan kaliy miqdori o‘rtachadan past darajaga tushgan. Bu holatlar yerdan foydalanishda ilmiy yondashuvni yanada kuchaytirish, tuproqqa qaytariladigan ozuqaviy moddalar muvozanatini ta‘minlash va agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Chunki yerdan faqat hosil olinish emas, balki unga kuch ham berish kerak. Yerga qaytarilgan har bir ozuqa,

uchragan yerning unumdorligini tiklash oson ish emas. Bu katta mehnat, vaqt va ilmiy yondashuvni talab qiladi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 22 million gektar yer cho‘llanish jarayoniga moyil hududga kiradi. Bu raqam bizga yana bir muhim haqiqatni eslatadi: yer resurslaridan foydalanishda bugungi qarorlar qiymati ertangi natijalar bilan o‘lchanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholi ehtiyojlari, shaharozlik va infratuzilma rivoji bilan bog‘liq holda yer resurslaridan foydalanish jarayoni ham o‘zgardi.

So‘nggi 20 yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yer maydoni 0,23 gektardan 0,16 gektargacha qisqargani ham har qarich yerning qadri oshib borayotganini ko‘rsatadi. Demak, bugungi vazifa aniq: mavjud yerni saqlash, unumdorligini tiklash, har bir gektardan oqilona va samarali foydalanish. Ammo bu vazifalarni bajarish uchun muammoni anglashning o‘zi yetarli emas. Yerni asrash uchun uni chuqur o‘rganish, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va zamonaviy texnologiyalardan

foydalanish zarur. Shuning uchun bugun tuproq taqdiri ilm-fan va innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Umummilliy mas’uliyat

Tuproqni asrash uchun, avvalo, uni bilish kerak. Chunki har bir yer maydonining o‘z xususiyati, tarixi va ehtiyoji bor. Bir hudud uchun samarali bo‘lgan yondashuv boshqa maydon uchun kutilgan natija bermasligi mumkin. Shu bois, bugun yerga munosabat umumiy tasavvurlarga emas, balki aniq ilmiy ma’lumotlarga asoslanishi lozim.

Tuproqshunoslik fani aynan shu vazifani bajaradi. U yerning holatini o‘rganadi, unda kechayotgan jarayonlarni tahlil qiladi va tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi.

O‘zbekistonda bu sohada shakllangan ko‘p yillik tadqiqotlar va to‘plangan boy tajriba yer resurslarini samarali boshqarish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan qilinayotgan ishlar ham ana shu maqsadga qaratilgan. Jumladan, 2026-yilning birinchi yarmida Andijon, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida sug‘oriladigan maydonda tuproq tadqiqotlari va agrokimyoviy xaritalash ishlari bajarildi.

Bu kabi tadqiqotlar har bir yer maydonining haqiqiy holatini aniqlash, muammolarni oldindan ko‘rish va to‘g‘ri agrotexnik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bugun raqamli tuproq xaritalari zamonaviy dehqonchilikning muhim vositasiga aylanmoqda. Ilgari yer haqidagi qarorlar asosan tajriba va kuzatuvlarga tayangan bo‘lsa, bugun zamonaviy texnologiyalar orqali har bir maydonning aniq holatini baholash mumkin. Raqamli tuproq xaritalari orqali yerning tarkibi, unumdorlik darajasi, ozuqa moddalari holati, sho‘rlanish darajasi va boshqa muhim ko‘rsatkichlar haqida aniq ma’lumot olinadi. Bu esa o‘g‘itilash, sug‘orish va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda belgilash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, bugun yerning ham o‘z “pasporti” bor.

Ushbu ma’lumotlar fermer va mutaxassislarga yer bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari bundan ham kengaymoqda. Sun’iy intellekt, geoxabrot tizimlari va masofadan

zondlash texnologiyalari orqali tuproqdagi o‘zgarishlarni tezkor tahlil qilish, xavfli jarayonlarni oldindan aniqlash va kelajakdagi holatni taxmin qilish imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Bu — yer resurslarini boshqarishda yangi davr boshlanayotganidan dalolat.

Endigi vazifa faqat mavjud holatni qayd etish emas, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishdan iborat. Albatta, har qanday texnologiyaning samarasi uning amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Ilmiy xulosalar dalalarga yetib borsa, raqamli xaritalar asosida qabul qilingan qarorlar haqiqiy natija bersa, zamonaviy yondashuvlar xalq farovonligiga xizmat qiladi.

Shuning uchun bugungi muhim vazifalardan biri — ilm-fan, davlat boshqaruvi va yerdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish. Chunki tuproqni asrash faqat olimlar yoki mutaxassislarning vazifasi emas. Bu — umummilliy mas’uliyat. Fermer uchun yer unumdorligini saqlash madaniyati, olim uchun yangi yechimlar izlash va ilmiy amaliyotga yaqinlashtirish, rahbar uchun yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash va nihoyat har bir fuqaro uchun esa ona zaminga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir.

Rizq manbayi

Yerni bilish — uni asrashning ibtidosi. Ammo bilimning o‘zi yetarli emas. Endi uni mas’uliyatli harakatga aylantirish, tuproqning eng qimmatli boyligi bo‘lgan unumdor qatlami saqlash muhim vazifa.

Tuproqning haqiqiy boyligi uning faqat maydoni bilan emas, balki insonga hayot va rizq bera oladigan unumdorligi bilan belgilanadi. Yerning eng qimmatli qismi unumdor qatlami. Bu qatlama o‘simliklar hayoti uchun zarur moddalar, tabiiy muvozanat va tuproqning hayotbaxsh quvvati mujassam.

Asrlar davomida shakllangan boylikni qisqa vaqtda zaiflashtirish mumkin. Ammo uni qayta tiklash uchun katta mehnat, vaqt va ilmiy yondashuv talab etiladi. Shu bois, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish jarayonida unumdor qatlami muhofaza qilish masalasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Mamlakatimizda bu borada huquqiy asoslarni takomillashtirishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi “Tuproq monitoringini amalga oshirish hamda tuproqning unumdor qatlami aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu yo‘nalishda muhim huquqiy poydevor bo‘ldi.

Ushbu hujjatlar asosida tuproq monitoringini yuritish, unumdor qatlami aniqlash va sidirib olish, uni saqlash, oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha aniq tartiblar belgilandi. Bu esa yerga munosabatda yangicha yondashuvni shakllantirmoqda. Chunki bugun yerdan foydalanish deganda faqat undan hosil olish emas, balki uning tabiiy imkoniyatlarini kelajak uchun saqlab qolish ham tushuniladi.

Bugun tuproqni asrash uchun zarur bo‘lgan asoslar mavjud. Ilmiy salohiyat, ko‘p yillik tajriba, zamonaviy texnologiyalar bor. Huquqiy baza shakllangan. Endigi eng muhim vazifa — ana shu imkoniyatlarni hayotga to‘liq tatbiq etish. Chunki har qanday islohotning haqiqiy samarasi hujjatlardagi emas, balki amaliyotdagi natijasi bilan o‘lchanadi.

Ilmiy tavsiyalar fermer dalasiga yetib borsa, zamonaviy texnologiyalar amaliyotda ishlash, qonun talablari har bir yerdan foydalanuvchining kundalik mas’uliyatiga aylansa, shundagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi.



Taraqqiyot manzillari



Bir vaqtlar asosan konchilik shahri sifatida tanilgan Zarafshonda so‘nggi yillarda zamonaviy korxonalar, yangi turar joylar barpo etildi. Ko‘chalar kengayib, aholi uchun qulay jamoat maskanlari paydo bo‘ldi. Muhimi, amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari minglab aholi uchun yangi imkoniyat va barqaror ish o‘rinlarini ochmoqda. Shaharda ishbilarmonlikka qulay muhit yaratilgani bois, tadbirkorlar soni kun sayin ko‘payib bormoqda.

— Shahrimiz qimmatbaho metallarni qazib olish, qayta ishlash bo‘yicha respublikada o‘z o‘rniga ega, — deydi Zarafshon shahri hokimi o‘rinbosari Anvar Shohmirzayev. —

Hududning asosiy drayveri qurilish materiallari sanoati va xizmat ko‘rsatish sohasi. Sanoatimiz Qizilqum cho‘lining noyob boyliklari bilan bevosita bog‘liq. Xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish uchun yangi tashabbus va loyihalarni qo‘llab-quvvatlab kelaypmiz. 2017-yilda shahar aholisi 80 mingga yaqin edi. Hozir ular soni 120 mingdan oshdi. Aholining ko‘payishi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga talabni ham oshiradi. Shaharda 2018-yilgacha bor-yo‘g‘i uchta yirik savdo kompleksiyasi faoliyat yuritgan bo‘lsa, hozir ular soni 15 taga yetdi. Shuningdek, investorlar jalb qilinib, qulay biznes muhiti yaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, Zarafshon shahri har tomonlama rivojlanib boryapti. Maqsadimiz — aholi farovonligini yanada oshirish.

Ayni vaqtda shaharda umumiy qiymati 45 milliard so‘m bo‘lgan uch qavatl zamonaviy savdo majmuasi qurilmoqda. Loyiha ishga tushgach, qariyb 300 kishi doimiy ishli bo‘ladi. Majmua shahar aholisi va mehmonlari uchun zamonaviy xarid va dam olish markaziga aylanishi kutilmoqda. Shuningdek, shaharda xorijlik investorlar o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi natijasida ochilayotgan yangi ish o‘rinlari soni oshib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan raqobatbardosh mahsulotlar tashqi bozorlarda munosib o‘rin egallamoqda. Bu esa shahar iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va yangi investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilayapti.

Ana shunday yirik loyihalardan biri xitoylik investorlar tomonidan bosqichma-bosqich ishga tushirilayotgan korxonadir. Ushbu zavodda mahalliy granit mahsulotlari zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlanadi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga Markaziy

HUDUDLARDAGI ISTIQBOLLI LOYIHALAR FAROVONLIK ASOSI



Osiyo davlatlarida talab ortib bormoqda. Yaqin istiqbolda esa Rossiya bozoriga eksport hajmini yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda korxona faoliyati yanada kengaymoqda. Hozir umumiy qiymati 10 million dollarga teng yana ikkita yirik loyiha amalga oshirilyapti. Ular doirasida mahalliy marmar koni o‘zlashtirilib, kalsiy karbonat, marmar plitalari, mozaika hamda marmar chiqindilaridan eksportbop tashqi bezak toshlari (dekorativ kroschka) ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Loyihaning birinchi bosqichidayoq 100 ta yangi ish o‘rmi ochilishi reja qilingan. Ishlab chiqarishda chiqindilarni to‘liq qayta ishlash texnologiyasi qo‘llanadi. Bu ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

— Korxonamiz 2024-yilda tashkil etilgan. Asosiy xomashyo yaqin hududagi granit

konidan yetkazib beriladi, — deydi qo‘shma korxona vakili xitoylik Ding Ming. — U yerda har kuni o‘rtacha 200-300 kub metr granit qazib olinadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlangan granit turli o‘lcham va shakllarda tayyor mahsulotga aylantiriladi. Mahsulotlarimiz ichki va tashqi bozorlarda o‘z xaridoriga ega. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali mahsulotga qo‘shimcha qiymat qo‘shilayotgani korxonamiz iqtisodiy samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari ochish va eksport imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda.

Zarafshon sanoati faqat tog‘-kon sohasi bilan cheklanib qolmayapti. Hududda yengil sanoat ham jadal sur‘atda rivojlanib, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi yirik loyihalardan biri

turkiyalik investorlar ishtirokida yo‘lga qo‘yilgan. Korxonada akril kalava ip ishlab chiqarishdan tortib, mahsulotlarni bichish-tikish va tayyor holatga keltirishgacha bo‘lgan jarayon yaxlit tizimlashtirilgan. Zavod oyiga 30 tonna akril kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega. Tayyorlanayotgan tikuvchilik mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda sotilyapti.

— Korxonada xomashyodan tayyor mahsulot tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon to‘liq qamrab olingan, — deydi korxona direktori Sabri Etgin. — Bu esa mahsulot sifati va raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Hozir shu yerlik 248 kishi doimiy ish bilan ta‘minlangan. Kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport geografiasini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari ochish reja qilingan. Hozir yana bir istiqbolli investitsiya loyihasi ustida ishlar boshlangan. Unga ko‘ra, qo‘lda to‘qish uchun mo‘ljallangan yuqori sifatli ip ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Yangi mahsulot akril tolasi va tabiiy jun aralashmasidan tayyorlanadi. Buning uchun zarur bo‘lgan yuqori sifati tabiiy jun Avstraliyadan olib kelinishi rejalashtirilgan. Ushbu loyiha korxonamizning mahsulot turlarini ko‘paytirib, eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Zarafshon shahrida kichik va o‘rta biznes rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Sanoat hududida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ixcham ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yilib, mahalliy tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shulardan biri shisha va oynaga ishlav berishga ixtisoslashgan korxonadir. Bu yerda buyurtma

asosida turli o‘lcham va dizayndagi mahsulotlar tayyorlanib, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalari ehtiyoji qanoatlantirilmoqda.

— Hududda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun barcha imkoniyat yaratib berilgan, — deydi korxona ish yurituvchisi Sherzod Raimqulov. — Asosan shisha va oyna mahsulotlarini qayta ishlamaymiz. Korxonamizning bir kunlik ish quvvati 30 metr kvadratin tashkil etadi. Hozir faoliyatimizni yanada kengaytirish borasida ishlayapmiz. Samaradorlikni oshirish uchun lazerli texnologiyalar sotib olmoqchimiz. Ushbu jarayonlar yakunlangach, ish o‘rinlari yana ko‘payadi.

Shahardagi kichik sanoat zonasida yana bir istiqbolli loyiha yo‘lga qo‘yilib, ratan materialidan zamonaviy stol va stullar ishlab chiqarilmoqda. Jarayonda mahsulot sifati, zamonaviy dizayn va xaridorlar talabi asosiy mezon sifatida belgilangan. Ayni vaqtda korxonada 4 kishining doimiy bandligi ta‘minlangan. Muhimi, ana shunday kichik ishlab chiqarish tashabbuslari mahalliy mahsulotlar turini ko‘paytirish va yangi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozir Zarafshon shahrida 1900 tadbirkor to‘xyatdan o‘tgan. Ularni qiynayotgan muammolarni hal etib, huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yordam berib kelinmoqda. Har bir investitsiya loyihasi esa yangi ish o‘rinlari ochish va oilalar farovonligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Abdug‘affor QIRG‘IZBOYEV,
Namangan davlat universiteti
rektori, tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, fan dasturlari mazmunini xalqaro talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 420 ta o‘quv dasturi dunyoning yetakchi 300 talik reytingidan o‘rin olgan oliy ta‘lim muassasalarining ilg‘or o‘quv dasturlari, sillabuslari va samarali akademik tajribasi asosida qayta ko‘rib chiqildi hamda takomillashtirildi.

Universitetning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, talabalarining sifatli ta‘lim olishi uchun munosib sharoit yaratish yo‘nalishida ham qator ishlar bajarildi. Oxirgi bir yilda fizika-matematika, tabiiy va ijtimoiy fanlar fakultetlari talabalari uchun mo‘ljallangan ikki ming o‘rinli innovatsion o‘quv binosi yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

Talabalar hayotida eng muhim va dolzarb muammolardan biri turar joy masalasidir. Bu borada ham tizimli ishlanyapti. Hozir umumiy sig‘imi 900 o‘rinli 2 ta talabalar turar joyi xizmat ko‘rsatayapti. Ularda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun kutubxona hamda ma’naviyat xonalari ishlab turibdi. “Yuksalish” massivida joylashgan innovatsion fakultet hududida ham yana ming o‘rinli 2 ta 7 qavatli talabalar turar joy binosi qurilishi yakunlanib, yangi o‘quv yilidan ishga tushiriladi. Ayni paytda professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar hamda talabalar uchun 500 o‘rinli zamonaviy oshxona binosi qurilishi ham boshlab yuborildi.

Talabalarining mustaqil ta‘lim olishi, fanlarni chuqur o‘zlashtirishi va ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun universitet axborot-resurs markazida zarur sharoitlar yaratilgan. Bu yerda 16 mingdan ziyod nomdagi jami 278 ming 682 nusxa adabiyot jamlangan. Talabalarining o‘quv jarayonida foydalanishi uchun zarur bo‘lgan o‘quv adabiyotlari qariyb 100 foiz elektron shakliga o‘tkazilgan.

Yoshlarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, mutaxassislik bo‘yicha tajribasini oshirish maqsadida amaliyot masalasiga ham

alohida ahamiyat berilmoqda. Yakunlangan o‘quv yilida 13 ming 750 talaba malakaviy amaliyotga jalb etildi. Buning uchun 8537 ta turli tashkilot va muassasalar bilan shartnomalar tuzildi. Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish to‘liq raqamlashgan holda career.edu.uz elektron platformasi orqali tashkil etildi. Elektron platformadan foydalanish amaliyot jarayonini tartibli tashkil etish, talabalarni tegishli tashkilotlarga yo‘naltirish va shartnomaviy hujjatlarni tezkor rasmiylashtirish imkonini berdi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni, mehnat bozori ehtiyojlari hamda yoshlarning ta‘limga qiziqishlari chuqur tahlil qilinib, universitetda yangi ta‘lim yo‘nalishlari ochilmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlari mavzusi viloyatdagi dolzarb muammolar va amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib shakllantirilishiga e’tibor qaratilgan.

Universitetda bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalar qatorida. Shu maqsadga Milliy bankning “Kelajakka qadam” dasturi doirasida bitiruvchilarga imtiyozli kreditlar olishda amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. 2024/2025-o‘quv yilida 64 bitiruvchi 1,2 milliard so‘mlik imtiyozli kredit olgan bo‘lsa, 2025/2026-o‘quv yilida ushbu ko‘rsatkich qariyb uch barobar oshib, 199 bitiruvchiga 3,5 milliard so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi. Shuningdek, yana 285 bitiruvchimizning tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishi uchun 3 milliard so‘mlik imtiyozli kredit olishi rejalashtirilgan.

Ilmiy salohiyat o‘smoqda

Oliygo‘himizda 45 fan doktori, professorlar va 295 falsafa doktori, dotsentlar faoliyat yuritmoqda. E’tiborli jihati, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati o‘tgan bir yilda 41 foizdan 58 foizga yetdi va yil yakuniga qadar uni 65 foizga chiqarish ustida tizimli ishlar qilinmoqda. Universitetda ilmiy darajalar beruvchi 5 ta ilmiy kengash 10 ta ixtisoslik



bo‘yicha faol ishlamoqda. O‘tgan bir yildan ziyod vaqtda jami 246 tadon ortiq dissertatsiya muvaffaqiyatli yoqlandi.

Iqtidorli talabalarni ilm-fanga jalb qilish borasida ham qator salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, talabalarimiz safida Prezident stipendiyati, shuningdek, Islom Karimov, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek hamda Bobur nomidagi davlat stipendiylari sohiblari tahsil olyapti. Bundan tashqari, “Mirzo Ulug‘bek vorislari” loyihasining respublika bosqichida 2 talabamiz g‘oliblikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, yana 4 nafari tanlovning maxsus sovrinlariga ega bo‘ldi. Mazkur ko‘rsatkichlar universitetda yosh olimlar maktabi mustahkam poydevorga ega ekanining yaqqol va amaliy isbotidir.

Olimlarimiz tomonidan qisqa vaqtda Scopus va Web of Science xalqaro bazalariga kiruvchi nufuzli jurnallarda 130 dan ortiq maqola chop etildi. E’tiborlisi, ilmiy faoliyat faqat nashrlar soni bilan emas, balki ularning sifati va xalqaro iqtibosilligi bilan o‘soib borayotganini kuzatish mumkin. Olimlarimiz ORCID, ResearchGate va Google Scholar kabi xalqaro profilarda faol ishtirok etib, universitetning xalqaro ko‘rinuvchanligini oshirmoqda. Shuningdek, Belarus olimlari bilan qo‘shma tadqiqotlar, o‘zbek-turk qiyosiy tilshunosligi bo‘yicha izlanishlar bevosita amaliy natija berib, xalqaro nashriyotlarning nufuzli jurnallarida e’lon qilinmoqda.

Shu bilan birga, ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasi yo‘nalishida muhim va dadil qadamlar tashlandi. Hozir universitetda umumiy qiymati 5 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan 5 ta davlat granti loyihasi muvaffaqiyatli bajarilayapti. Orol dengizining qurigan tubidagi suv havzalarining gidrobiologik tarkibini aniqlash hamda istiqbolli suvo‘tlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish, o‘zbek va turk geontionimlarining lingvokulturologik, etnolingvistik tadqiqi, bioxilma-xilligi xavf

ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish kabi tadqiqotlar dolzarb muammolar yechimiga qaratilgani bilan diqqatga molik.

Universitet olimlarining ishlamlarini tijoratlashtirish borasidagi yutuqlar ham salmoqli. Bugungi kunda 4 ta ishlab chiqarish korxonasi hamda 15 ta xo‘jalik shartnomasi asosida amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, “AGROFOOD TECHNOLOGY” korxonasida yodga boy ko‘k yong‘oq murabbosini ishlab chiqarilib, iste’molchilarga yetkazib berilayotgan bo‘lsa, “Mo‘l hosil baraka” korxonasida olimlarimiz ishlamasi asosida mahsulot tannarxini 15-20 foiz arzonlashtirishga erishildi.

Shuningdek, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimiga qaratilgan dissertatsiyalar soni 2025-yilda 63 tani tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning birinchi yarmidayoq bu ko‘rsatkich 92 taga yetgani universitet ilmfanining real hayotga qanchalik tez va samarali tatbiq etilayotganini ko‘rsatadi.

Kengayayotgan hamkorlik geografiyasi

Bugun universitet nafaqat hududning, balki respublikaning xalqaro hamkorlik yo‘nalishida jadal rivojlanayotgan oliy ta‘lim muassasalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Oliygo‘himizning rivojlanish strategiyasida xalqaro hamkorlik, ilm-fan, innovatsiyalar va akademik mobillik ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Xususan, dunyoning turli davlatlaridagi yetakchi universitetlar bilan 18 ta xalqaro memorandum imzolandi. Muhimi, mazkur memorandumlarning barchasi amaliy bosqichga

O‘zbekistonda yoshlarning tadbirkor bo‘lishi shunchaki orzu emas, katta imkoniyatlar sari boshlangan yo‘ldir. Yaratilayotgan sharoit, imtiyozlar va tizimli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari minglab yoshlarni ish izlovchidan ish beruvchiga aylantirmoqda. Surxondaryo viloyati yoshlari misolida ham buning yorqin isbotini ko‘rish mumkin.



Hayotiy tashabbuslar qanotida

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri o‘laroq tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Buning uchun muhim huquqiy hujjatlar to‘plami qabul qilingan. Ular yoshlarning biznes tashabbuslarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning mutlaqo yangi tizimini yaratdi. Xususan, yoshlar bandligini ta‘minlashga ikki yirik tijorat banki mas’ul etib belgilanib, ularga jami 300 million dollar yo‘naltirildi. Bu mablag‘ hisobidan minglab yoshlarning biznes g‘oyalari hayotga tatbiq etilmoqda.

Bunday imkoniyatlar navqiron avlodning ish boshlashi, faoliyatini kengaytirishi uchun katta rag‘bat bo‘lmoqda. Xususan, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tijorat banklari tomonidan maxsus kreditlar ishlab chiqildi. Surxondaryoda yil boshidan ularni umumiy qiymati 4 milliard 220 million so‘mlik kreditlar uchun resurs ajratish bo‘yicha murojaatlar qabul qilingan.

Bundan tashqari, “Kelajakka birinchi qadam” loyihasi asosida Surxondaryo viloyatida 435 talabaning biznes loyihasi qo‘llab-quvvatlandi. Ularga 10 milliard 540 million so‘m kredit ajratildi. Qolaversa, 777 yoshga 90 milliard 9 million so‘m imtiyozli kredit berildi. Bu raqamlar ortida yuzlab yoshlarning yorug‘

tadqiri, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va minglab ish o‘rinlari mujassam. Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qumqishloq mahallasida yashovchi Ergash Norboyev ajratilgan imtiyozli kredit evaziga issiqxona qurdi.

— Bir vaqtlar tadbirkorlik orzu edi. Unga esa mablag‘siz erishib bo‘lmaydi. Shu bois, xorijga ketib, mavsumiy ishlab kelardik. Topgan pulimdagi barakani sezmaganman, — deydi Ergash Norboyev. — Hozir zamonaviy issiqxonada bodring yetishtirib, daromad topypman. Aslida gap issiqxona qurganim haqida emas. Mamlakatimizda chekka hududlarda yashaydigan men kabi insonlar taqdiridagi o‘zgarish haqida aytayman. Kechagina o‘zim ish izlab yurgan edim. Bugun mahallamizdagi ikki yoshni ham ishli qildim.

Yana bir qahramonimiz Jarqo‘rg‘on tumanining Hayitobod mahallasida yashovchi Xonzoda Turdimurodova. U hali talaba bo‘lsa-da, tadbirkorlikni boshlab yuborgan. Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan Xonzoda o‘z mahallasida “Star up” o‘quv markazini ochdi.

— Biznes g‘oyam anchadan beri bor, ammo uni amalga oshirish uchun yetarli mablag‘ yo‘q edi. Imtiyozli moliyaviy ko‘mak esa rejamni hayotga tatbiq etish imkonini berdi. Shu tariqa

ORZULAR MANZILIDAN
imkoniyat, ishonch va taraqqiyot
sari odimlayotgan yoshlar

tuman markazidan 10-15, viloyat markazidan qariyb 60-70 kilometr uzoqdagi mahallamizda zamonaviy ta‘lim maskani ochdik. Markazimizda 6 ta doimiy ish o‘rni yaratilgan. Unda 500 dan ortiq yosh turli yo‘nalishlarda ta‘lim olmoqda, — deydi “Star up” o‘quv markazi rahbari Xonzoda Turdimurodova.

Jarqo‘rg‘on tumanidagi yana bir ibratli misol Jo‘rabek Hayitovning tadbirkorlik faoliyatidir. Tijorat banki tomonidan Jo‘rabek Hayitov va uning turmush o‘rtog‘iga 1 milliard 200 million so‘m kredit ajratilgan edi. Bu mablag‘ hisobidan tumanning Qo‘shtep mahallasida mebelchilikka ixtisoslashtirilgan zamonaviy sex tashkil etildi. Hozir korxonada 30 dan ortiq turdagi mebel ishlab chiqarilib, bozorlarga muntazam yetkazib berilmoqda.

Bunday misollar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati amalda qanday samara berayotganining yaqqol dalilidir. 1 milliard 200 million so‘m imtiyozli kredit hisobidan tashkil etilgan mazkur sex tuman sanoati uchun yuqori samarali investitsiya loyihalaridan biri hisoblanadi. Loyiha doirasida 10 ta yangi doimiy ish o‘rni yaratilgan. Har bir ish o‘rniga o‘rtacha 120 million so‘m investitsiya to‘g‘ri kelmoqda.

Agar korxona ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalansa, yillik mahsulot aylanmasi



dastlabki investitsiyaning 180-250 foizigacha yetishi mumkin. Natijada korxona 3-5 yil ichida o‘zini iqtisodiy jihatdan qoplash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Birgina ishlab chiqarish obyekti nafaqat aholi bandligini ta‘minlaydi, balki mahalliy byudjetga soliq tushumlarini ko‘paytirish, import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish sur‘atini jadalashtirishga xizmat qiladi.

Bugun Jarqo‘rg‘on tumanida qilinayotgan ishlarga nazar tashlar ekanmiz, ajratilgan har bir kredit ortida yangi korxona, yangi ish o‘rni,

barqaror daromad manbai va eng muhimi, o‘z kelajagini o‘zi yaratayotgan yoshlar turganini ko‘ramiz.

Orzularning manzili bo‘lmaydi. Shu bois, u Surxondaryoning Angor tumanidagi chekka mahallalarida ham tug‘ilaverdi. Angorlik qizaloq Nozima Ramazonova yillar o‘tib jahonga mashhur universitet auditoriyasida o‘tirishni tasavvur ham qilmagan bo‘lsa kerak.

Insonni yuksaltiradigan omil uning tug‘ilgan joyi emas, orzularining ko‘lami. Bir vaqtlar mahalla ko‘chalarida kitob ko‘tarib yurgan

olib chiqildi. Ular doirasida qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, akademik almashinuv dasturlari, professor-o‘qituvchilar stajirovkalari, qo‘shma konferensiyalar va ilmiy seminarlar tashkil etilmoqda. Bu esa xalqaro hamkorlikni rasmiy hujjatlar darajasidan real natijalarga yo‘naltirilgan tizimga aylantirish imkonini berdi.

Universitetning xalqaro hamkorlik geografiyasi ham tobora kengayayapti. Ayniqsa, Osiyo, Yevropa, Amerika va MDH mamlakatlaridagi nufuzli universitetlar bilan samarali aloqalar o‘rnatilgan. Hamkorlik doirasida qo‘shma ta‘lim dasturlari, ilmiy loyihalar, grantlar, yozgi maktablar, qisqa muddatli kurslar hamda professor-o‘qituvchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada ta‘lim sifati, ilmiy faoliyat va xalqaro reyting ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Professor-o‘qituvchilarning xalqaro salohiyatini oshirish maqsadida hisobot davrida xorijlik 55 professor va mutaxassis universitetga keldi. Ular tomonidan ochiq ma‘ruzalar, seminarlar, mahorat darslari va ilmiy uchrashuvlar tashkil etildi. Shuningdek, 16 professor-o‘qituvchi xorijiy universitetlarda stajirovka o‘tadi, 40 nafar professor-o‘qituvchi esa xalqaro malaka oshirish dasturlarida ishtirok etdi. Bu orqali universitetda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta‘lim vositalari, sun‘iy intellekt elementlari va innovatsion ta‘lim metodlarini joriy etish ishlari yanada jadallashdi.

Bundan tashqari, xalqaro ta‘lim dasturlarini rivojlantirish borasida muhim yutuqlarga erishildi. Oliy o‘quv yurtida 8 ta Double Degree — ikki diplomli va Joint Degree — qo‘shma diplomli dasturlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ular talabalarga xalqaro tan olinadigan diplom olish, xorijiy universitetlarda tahsilni davom ettirish va global mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishish imkonini bermoqda.

Shuningdek, xalqaro faoliyatni boshqarishda raqamlashtirish jarayoni ham yangi bosqichga olib chiqilgan. Hamkor universitetlar bazasi, xalqaro memorandumlarning elektron arxivi, grant monitoringi tizimi, akademik mobillik platformasi va xalqaro hamkorlikning KPI monitoringi tizimlarini joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar qilyapti.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida oliy ta‘lim oldida turgan vazifalar tobora kengayib, uning jamiyat va davlat hayotidagi mas’uliyati yanada ortib bormoqda. Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida mamlakatimizdagi ulkan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan va ta‘limga qaratilayotgan yuksak e’tibor har birimizga katta kuch va mas’uliyat bag‘ishlaydi. Namangan davlat universiteti jamoasi ham ana shu ezigga maqsadlar yo‘lida o‘zining ilmiy, ma’rifiy va bunyodkorlik salohiyatini safarbar etib kelyapti. Bugun universitetimizda ta‘lim sifati oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, yoshlarning iste’dodi va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar erangi kunimizning mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiladi deb ishonamiz.

qiz bugun Buyuk Britaniyaning ilm-fan markazlaridan biri — Birmingem universitetida tahsil olmoqda.

Bu yerda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatdan kelgan o‘n minglab talaba ilm oladi. Nobel mukofoti sohiblari, mashhur olimlar va jahon miqyosidagi yetakchi tadqiqotchilar aynan shu ilm maskani bilan bog‘langan. Nozima Ramazonovanning Angordan Buyuk Britaniyaga bo‘lgan yo‘li samolyotdan emas, ishonchdan boshlangan. Yoshlarga bildirilgan ishonchdan!

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi ana shunday iqtidorli yoshlarga dunyoning eng nufuzli universitetlari eshigini ochib bermoqda. Bugun yuzlab o‘zbekistonlik yigit-qizlar ushbu jamg‘arma orqali AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda tahsil olmoqda. Minglab yoshlar esa bilim olib, vatanga qaytib, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shmoqda.

— “El-yurt umidi” jamg‘armasi bizga chinakam qanot bo‘ldi. Bugun O‘zbekiston yoshlari kelajakka mustahkam ishonch bilan odimlamoqda, — deydi Birmingem universiteti talabasi N. Ramazonova.

Nozima Ramazonovanning qissasi bir talabaning muvaffaqiyatigina emas, balki Angordan Buyuk Britaniyagacha cho‘zilgan imkoniyatlar ko‘prigi haqidagi haqiqatdir. Chekka mahallada ulg‘aygan qiz ham jahonning eng nufuzli universitetlarida o‘qishi mumkinligining yorqin dalilidir. Ba’zan butun bir mamlakat taraqqiyoti katta binolar yoki raqamlar bilan emas, bitta kitob ko‘targan yoshning yo‘li bilan o‘lchanadi. Chunki aynan ular erangi kun bunyodkorlariga, ko‘zlangan yuksak marralarimizni zabt etishdagi hal qiluvchi kuchga aylanadi. Zero, yur kelajagi bunyodkorlik ruhidagi katta orzular qilayotgan yoshlar qo‘lida. Bugun xorijda ta‘lim olayotgan, mahallasida ish o‘rni yaratayotgan, jamiyatga ta‘lim nurini taratayotgan navqiron avlod bizga ana shunday ishonch beradi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

